

O'ZBEK XALQ OG'ZAKI NASRI NAMUNALARINING INGLIZCHA TARJIMALARIDA MILLIY KOLORITNING IFODALANISHI

Roviyajon Abdullayeva

O`zDJTU, Turon FA faxriy akademigi, f.f.d. professor.

Raxmanova Nafosat Baxtiyor qizi

UrDU, Lingvistika (ingliz tili) yo`nalishi 2-kurs magistri

Annotasiya: Ushbu maqolada badiiy tarjimada milliy koloritni saqlash va milliy xos so'zlarni tarjima qilishda eng maqbul usullardan foydalanish to'g'risida olib borilgan izlanishlar va ularning xulosalari kiritilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: milliylik, milliy kolorit, mahalliy, realiyalar, analogiya, ekvivalentlik, transliteratsiya.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7636572>

Kirish. Jahon tilshunosligida tarjima o'ta nozik jarayon hisoblanib, bunda tarjimon bor mahoratini ishga solib uni qayta yaratish ustida tinimsiz izlanishlar olib borishi talab qilinadi. Tarjimon ikki til va ikki millat orasidagi bamisol ko'prikdir, uning tarjima qilish qobiliyati orqali xalqning, millatning eng nozik qirralari aks ettiriladi. Ayniqsa, muayyan xalqga mansub bo'lgan milliy xos so'zlarni tarjima qilishda tarjimonning yondashuvi alohida e'tiborga molikdir. Milliy koloritni saqlash tarjima qilingan badiiy asarning milliy bo'yog'ini yuzaga chiqarib beradi. Ya`ni, ma'lum tilda uchragan so'zlar va tushunchalar boshqa tilda bo'lmasligi yoki mazmunan, shakl, hajm jihatdan farq qilishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Tarjimada milliy koloritni saqlash masalalarini o'rghanish jarayonida tarjima nazariyasi va amaliyoti sohasi doirasida oldin izlanish olib borgan olimlar va tarjimonning metod va uslublaridan, jumladan, E.Ochilovning "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" va "Badiiy tarjima masalalari", Qudrat Muasayevning "Tarjima nazariyasi asoslari", I.G.ofurov, O.Mo'minov, N.Qambarovlarning "Tarjima nazariyasi" asarlaridan foydalanib xulosalar berildi.

Natijalar va muhokamalar. Ertaklarning ingliz tiliga bevosita tarjima qilinishi ustida olib brogan izlanishlarimiz shuni ko`rsatdiki, yigirmaga yaqin o'zbek xalq ertagi inglizchaga bevosita, ya`ni to`g`ridan-to`g`ri tarjima qilingan. "Treasury of Uzbek Legends and Lore" (O'zbek xalq afsonalari va og`zaki ijodi namunalari) deb nomlanuvchi to`plamdag'i asarlar bevosita tarjimalar sifatida e'tiborga loyiq. O'zbek folklorining bir nechta janrlariga oid namunalardan tarkib topgan bu to`plamdan "Jahldor pashsha", "Tulki bilan turna", "Qiz va ajdar", "Oltin tarvuz", "Zumrad va Qimmat" ertaklarining ingliz tiliga qilingan tarjimalari o`rin olgan.

Kuzatishlar shuni ko`rsatdiki, yuqorida sanalgan ertaklar asliyat asosida tarjima qilinmagan, ularning ba`zilarida nimalarnidir qo'shish yoki ayrim epizodlarni tushirib qoldirish hollari juda ko`p uchraydi. "Oltin tarvuz" ertagining asl nusxasida asosiy personajlar ikki

kishini-kambag`al dehqon va boyni tashkil etadi. Tarjimada esa ikkala holatda ham “peasant”-dehqon so`zi qo`llangan. Ertakdagagi ikkinchi personajning boy ekanligi shundaki, unda ikki tabaqa vakili taqqoslangan. Kambag`al dehqon o`z ulushini atrofdagilar bilan baham ko`radi, boy esa hech kimga hech narsa bermaslik uchun eshik-derazalarini yopib, tarvuzni kesadi va arilar hujumiga uchraydi.

Turkumdagagi dastlabki ertak “The Buried Treasure”- “Ko`milgan xazina” bo`lib, u ingliz tiliga to`liq va to`g`ri tarjima qilingan. Matnda tarjimon mahorati yaqqol ko`rinadi, bu o`rinda uning o`zbek millati turish-turmushi, to`y-marosimlari, an`analari va tarixi to`g`risida yetarli ma`lumotga egaligi muhim rol o`ynaydi. Ota o`zining dangasa o`g`illarini mehnatga o`rgatish niyatida o`limidan oldin ularni o`z oldiga chaqirib, yerga oltin ko`milganligi, lekin aniq joyini bilmasligini aytibdi. Otaning o`limidan keyin o`g`illar tillani toppish maqsadida, yerni hamma tomondan kovlashga kirishibdilar, biroq hech narsa topolmagach, mehnatlari zoye ketishini xohlamay, yerga urug` qadabdilar va mo`l-ko`l hosil olib, bir yil to`-totuv hayot kechirishibdi. Kelasi yil ham tillani izlab topisholmabdi. Shu tariqa har yili asta-sekin mehnatga ko`nikib ketishibdi. Ertakning syujeti, tuguni tarjimada mukammal berilgani bois undagi ko`pgina milliy-tarbiyaviy unsurlar saqlanib qolgan. Tarjimon ertakdagagi mehnatsevarlik ulug`langan holatlarni aniq ifoda eta olgan.

“*Ko`p o`ylab, bosj qotirib ular bir qarorga kelishibdi: “Dalaning yeri chopilgan, balki ozgina bo`lsa ham bug`doy eksak bo`larmidi?” Xullas, yigitlar bug`doy ekib daladan mo`l hosil olishibdi. Hosilni sotib, olgan puliga bir yil to`q-farovon hayot kechirishibdi*” .

“*Then it struck them that perhaps they might just as well plant some wheat since the earth was now ploughed and ready for sowing. So they sowed the wheat, and an abundant harvest which they sold for a good price giving them a year of prosperity*”.

Garchi qahramonlar nutqi tarjimada aniq berilmagan bo`lsa-da ertak ma`no-mazmuniga hech qanday putur yetmagan. tarjimadan ko`rinib turibdiki, o`zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan mehnatsevarlik hatto eng dangasa odamda ham namoyon bo`lgan va u o`z aravasini o`zi tortib keta oladigan qudrat kasb etgan.

Turkumdagagi “Happiness and the Bride”-“Kelin va baxt qushi”- sehrli-fantastik ertakdir. U masalnomaga mazmunga ega. Bu tarjimada ham insonlarning shirin xayollarini, ularning orzu-havaslarini, ertakning qanday va qaysi maqsad yo`lida yaratilganligini to`g`ri tushingan mutarjim xalqimizga xos barcha detallarni aniq tasvirlashga harakat qilgan.

Ertak sarlavhasi ingliz tiliga “Happiness and the Bride” tarzida o`girilgan. “Happiness” so`zi ingliz tilidan “baxt” deb tarjima qilinadi. O`zbek xalq og`zaki ijodida baxt doimo qushga qiyoslanadi, chunki u tutqich bermas bir xususiyatga ega tushuncha sifatida ta`riflanadi. Qush esa ozodlikni sevuvchi, xohlagan joyida makon qurib, xohlaganicha kun kechiruvchi mavjudot bo`lib, insoniyat azal-azaldan unga havas qilib kelgan va baxtning unga o`xshatilishi odamlar intilgan har bir narsaning erkinligini, binobarin, har qanday xohish yoki istak bilan berilmasligini ifodalab keladi. Baxt ham inson nazdida qush kabi erkinlik va yuksalish ramzidir. Tarjimada “qush” so`zining bermasligi sababini aynan shu bilan izohlash mumkin. “Qush” so`zining tarjimada berilmaganligi ertak ma`nosini ingliz kitobxonga ochib berishda o`ziga xos rol o`ynagan, bu bilan tarjimon go`ya ma`nosini ochib berishni so`z tarjimasidan ustun qo`ygan.

Xulosa. Ma'lumki, badiiy tarjimada milliy kolorit tushunchasi bizga ma'lum, noma'lum bo'lgan xalqning urf- odatlari,hayot tarzi,umuman olganda,milliy xususiyatlari tushuniladi.Shunday ekan,milliy koloritni saqlagan holda eng maqbul usullardan to'g'ri foydalanib tarjima qila oladigan tarjimonni o'z kasbining ustasi deyish mumkin.Tarjimon nafaqat xorijiy tilni, balki o'z tilining grammatikasi, leksikologiyasi, stilistikasini ham mukammal o'rganishi lozim bo'ladi. Asliyatdagi milliy o'ziga xoslikni tarjimada aks ettirish masalasi tarjimashunoslikda atroflicha o'rganilgan soha. Shunga ko'ra, badiiy asarlar tarjimasi jarayonida ko'ngil yoqqan yo'l bian emas balki haqiqiy mutaxasislardek hasoslik bilan yondashish talab qilinadi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro`yhati

1. Qudrat Musayev Tarjima nazariyasi asoslari.- O'zbekiston Respublikasi FA: Fan nashriyoti, 2005.(89-123 bet)
2. Tarjima va milliy kolorit. <https://uz.rn.wikipediya.org>, (1-4 bet)
3. Sapaeva D.N. Means of establishing contact with the patient in medical discourse. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions 3 (4), 2022. P.1-4.
4. Bhalla, Alok. The Place of Translation in a Literary Habitat and Other Lectures. Central Institute of Indian Languages, 2003.
5. Lefevere, Andre. Translation/History/Culture: A Sourcebook. Taylor & Francis, 2002.